



**MÁMLEKETLIK AKTIVLERDI BASQARIW AGENTLIGINI N'  
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLÍQ BASQARMASÍ**

**B U Y R U G' I**

**No'kis qalasi**

**№ 155**

**11 – Sentyabr 2023 jil.**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish  
agentligining 2023-yil 05-sentabrdagi 247-sonli buyrug'i ijrosini  
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 05-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi “Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-278-son qarori ijrosini tashkil etish to'g'risida”gi 247-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

**B U Y U R A M A N:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi “Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-278-son qarori (keyingi o'rinlarda - Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq ko'p kvartirali uylarning boshqarish organlari foydalanishida bo'lgan davlatga tegishli bino va inshootlarni, shuningdek, davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish hamda ularni Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi “Kommunal ta'minot markazi” davlat muassasasiga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazish bo'yicha choralar ko'rilishi topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari – Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (**Embergenov**) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi so'roviga ko'ra ko'p kvartirali uylarning boshqarish organlari foydalanishida bo'lgan davlatga tegishli bino va inshootlarni, shuningdek, davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazishda ishtirok etishi uchun mas'ul mutaxassis ajratilishini;

xatlov ishlari yakuniga ko'ra, aniqlangan davlat mulki obyektlari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirgan holda Davaktiv agentligiga kiritilishini ta'minlasin.

4. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari (**Mnajov**) xatlov natijasida aniqlangan davlat mulki obyektlarini belgilangan tartibda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi "Kommunal ta'minot markazi" davlat muassasasiga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazilishida vakolat doirasida tegishli choralarni ko'rsin.

5. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi v.v.b (**Urazbayeva**) mazkur buyruq nusxasini Davlat ishtirokidagi korxonalarida korporativ munosabatlarni ta'minlash sho'basiga hamda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasiga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Boshqarma boshlig'i**



**M. Radjapov**